

PUDRAT SHARTNOMASI

undefined«undefined»undefinedyil

518-2-38-OB/2022-son

Qorovulbozor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi (keying o‘rinlarda “Buyurtmachi” deb yuritiladi) nomidan nizomi asosida harakat qiluvchi J.Adilov bir tomondan va G’IJDUVON - PERFECT CONSTRUCTION MCHJ (keyingi o‘rinlarda “Pudratchi” deb yuritiladi) nomidan Nizomi asosida harakat qiluvchi Z.Jumayev ikkinchi tomondan, quyidagilar to‘g‘risida mazkur shartnomani tuzdilar:

1. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Pudratchi o‘z tavakkalchiliga asoslangan va o‘zining hamda Buyurtmachining materiallaridan foydalangan holda Buyurtmachining topshirig‘iga asosan quyidagi ishlarni bajarish majburiyatini: **Qorovulbozor tuman Tinchlik MFY Bobur ko‘chasi ichki yo’llarini joriy ta’mirlash ishlari.** Buyurtmachi esa ushbu bajarilgan ishlarni qabul qilish va haqini to‘lash majburiyatini oladi.

2. SHARTNOMA BAHOSI

2.1. Shartnoma bahosi **98 000 000(To’qson sakkiz million)** so‘nni tashkil etadi.

2.3. Shartnomaning 2.1- bandida ko‘rsatilgan baho dastlabki bo‘lib, so‘nggi baho Pudratchi taqdim etgan loyiha-smeta hujjalariiga muvofiq belgilanadi. Shartnoma bahosi inflyatsiya natijasida taraflarning kelishuviga muvofiq o‘zgartirilishi mumkin. Shartnoma bahosining oshishi bilan bog‘liq xarajatlar Buyurtmachi tomonidan ushbu shartnomaning 3-bandida belgilangan tartibda qoplanadi.

3. TO‘LOV SHARTLARI

3.1. Ushbu shartnoma bo‘yicha to‘lov quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

Oldindan to‘lov 30% 29 400 000 (Yigirma to’qqiz million to’rt yuz ming)

(bir vaqtning o‘zida, avans to‘lovi bilan bo‘lib-bo‘lib to‘lash va h.k)

3.2. To‘lov shakli: **pul ko‘chirish yo’li bilan**

(to‘lov talabnomasi, topshiriqnomasi, chek va h.k)

3.3. Shartnoma bo‘yicha so‘nggi hisob-kitob ishlar bajarilgandan so‘ng, qabul qilish jarayonida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish hisobga olingan holda, kundan kechiktirmay Buyurtmachi tomonidan amalga oshiriladi.

4. MAJBURIYATLARNI BAJARISH MUDDATLAR

4.1. Pudratchi ushbu shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni ishlarning kalendar rejasida belgilangan muddatlarda bajaradi (1-ilova).

4.2. Buyurtmachi quyidagi muddatlarda Pudratchi tomonidan bajarilgan ishlar uchun haq to‘laydi:

4.3. Shartnomaning amal qilish muddati:

Boshlanishi – 2022 yil 30 noyabr

Tugashi – 2022 yil 30 dekabr

5. TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

5.1. Pudratchining majburiylari:

o‘z kuchi va mablag‘lari hisobidan ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatlarda barcha ishlarni bajarish va Buyurtmachiga loyiha hujjalariiga mos keladigan holatda ishlarni topshirish; loyihaga muvofiq zaruriy materiallarni, qurilmalar, butlovchi ashyolarni qurilish

maydonchasiga yetkazib kelish va ularni qabul qilishni, tushirib olishni, omborga joylashni hamda qurilish davomida ularni saqlashni amalga oshirish; o‘z kuchi va vositalari bilan materiallar, qurilmalar, ashyolarni joylashtirish va ushbu shartnama bo‘yicha ishlarni bajarish uchun zarur bo‘lgan barcha muvaqqat binolarni qurish; ushbu shartnama bo‘yicha ishlarni bajarish uchun jalb qilinayotgan ixtisoslashtirilgan tashkilotlar bilan yordamchi pudrat shartnomalari tuzilganligi haqida Buyurtmachini xabardor qilish va yordamchi pudratchilar tomonidan ishlarning bajarilishini nazorat qilish; qurilish maydonchasida texnika va yong‘in xavfsizligi hamda qurilish maydonchasining qo‘riqlanishi bo‘yicha zaruriy tadbirlarning bajarilishini ta’minalash; qurilish obyektlarining sug‘urta qilinishini ta’minalash; qurilishi tugallangan obyektlarni qabul qilish dalolatnomasi imzolangandan keyin 3 kunlik muddatda qurilish maydonchasidan o‘ziga tegishli mol-mulkni olib ketish.

5.2. Buyurtmachining majburiyatları:

ishlarning kalendar rejasida belgilangan hajmda va muddatda Pudratchiga qurilish maydonchasini topshirish; shartnomada belgilangan miqdorda va muddatda shartnomaning 1.1-bandida nazarda tutilgan ishlarni bajarganlik uchun Pudratchiga haq to‘lash;
Pudratchining yozma xabarnomasini olgan sanadan boshlab 2 hafta ichida obyektni qabul qilib olish.

6. TARAFLARNING JAVOBGARLIGI

6.1. Taraflar shartnama bo‘yicha majburiyatlarini bajarish muddatlarini buzgan taqdirda, aybdor taraf ikkinchi tarafga har bir kechiktirilgan kun uchun shartnama bahosining foizi miqdorida neustoyka to‘laydi.

6.2. Mazkur shartnama bo‘yicha boshqa majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor taraf ikkinchi tarafga zararni va boy berilgan foydani qoplaydi.

6.3. Agar Pudratchi shartnama bo‘yicha ishlar tugallangandan so‘ng o‘ziga tegishli materialarni qurilish maydonchasidan olib ketmasa, Buyurtmachi qurilish maydonchasi bo‘shatib berilgan sanaga qadar Pudratchiga bajarilgan ishlar uchun haq to‘lashni to‘xtatib turishga haqli.

6.4. Neustoykani to‘lash taraflarni majburiyatlarini bajarish yoki kamchiliklarni bartaraf etishdan ozod etmaydi.

7. FORS-MAJOR

7.1. Taraflar ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan, ularni oldindan bilish yoki oldini olish imkoniyati bo‘lmagan holatlар (yengib bo‘lmas kuch) oqibatida majburiyatlarini bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun taraflardan birortasi ikkinchi taraf oldida javobgar emasdir. Bunday holatlар jumlasiga epidemiyalar, tabiiy ofatlar, harbiy harakatlar kiradi.

7.2. Tegishli savdo palatasi yoki boshqa vakolatli organ tomonidan berilgan guvohnoma yengib bo‘lmas kuchning mavjudligi va amal qilishining davomiyligini tasdiqlash uchun yetarli hujjatdir.

7.3. O‘z majburiyatlarini bajara olmayotgan taraf yengib bo‘lmas kuchning mavjudligi va uning shartnama bo‘yicha majburiyatlarini bajarishga ta’siri haqida ikkinchi tarafga xabarnoma berishi lozim.

7.4. Agar yengib bo‘lmas kuch holatlari uzlusiz —oy davomida amal qilib tursa va yaqin muddat ichida bekor qilinishi ehtimoli bo‘lmasa, mazkur shartnama taraflardan birining tashabbusi bilan ikkinchi tarafga yozma bildirishnomasi yuborish yo‘li bilan bekor qilinishi mumkin.

8. NIZOLARNI HAL QILISH TARTIBI

8.1. Ushbu shartnama bo‘yicha yoki u bilan bog‘liq holda taraflar o‘rtasida kelib chiqadigan barcha nizolar va ziddiyatlar taraflar o‘rtasida muzokaralar olib borish yo‘li bilan hal etiladi.
8.2. Muzokaralar olib borish yo‘li bilan nizolarni hal qilishga erishilmagan taqdirda, mazkur

OV.UZ тизими орқали ЭРИ билан тасдиқланган, Хужжат коди: OX30763132
shartnomaning tuzilishi, uning shartlarining o'zgarishi, buzilishi, ijro etilishi, bekor bo'lishi, tugatilishi va haqiqiyligi yuzasidan kelib chiquvchi barcha nizolar, kelishmovchiliklar va talablar javogar joylshgan hududdagi tegishli sud tartibida hal qilinadi.

9.KORRUPSIYAGA QARShI ShARTLAShUV

- 9.1. Ushbu shartnomaning har bir tomoni o'ziga nisbatan qo'llaniladigan barcha shu jumladan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchilik va normativ hujjatlardagi korrupsiyaga qarshi shartlar va talablarni tushunishi haqida bir-birini ishontiradi va ularga amal qilishni kafolatlaydi.
- 9.2. Istemolchi ushbu shartnoma amalda bo'lgan butun davr mobaynida u (shuningdek uning mansabdor shaxslari direktori xodimlari agentlari va boshqa vakillari) Ta'minotchi korxonaning manfaatlarida uning agenti yoki uning vakili sifatida xarakat qilib ta'minotchi korxonaning xamda O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchilik va normativ xujjalarning Korrupsiyaga qarshi tegishli shartlari va talablariga qatiy rivoja etish majburiyatini oladi

10.TARAFLARNING REKVIZITLARI VA IMZOLARI:

Pudratchi:

G'IJDUVON PERFECT
CONSTRUCTION MCHJ

Sohibiyon mfy Denov q-q
Tel 998907443764

H/R 20208000205254275001

MFO 00401

STIR 307570877

Turonbank Toshkent b/o


Z.Jumayev

Buyurtmachi:

Qorovulbozor Obodonlashtirish boshqarmasi
Begzod ko'chasi 32 uy

Tel 65 364 45 45

SHXV 40172286006232704520311001

STIR 201428852

Qorovulbozor G'aznachilik bo'limi

H/R 23402000300100001010


MFO 00014

STIR 201122919

J.Adilov

Hujjat **elektron raqamli imzo** orqali imzolangan.

Elektron raqamli imzoning haqiqiyligini tekshirish uchun **QR Code** ni skanerlang.

	Imzolovchi F.I.SH.	undefined
	Imzolangan sana	undefined
	Hujjat kodi	undefined
	Hulosa kodi	undefined

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO‘G‘RISIDA HUQUQIY
XULOSA**

SI7813070554

1. Loyihaning turi : Shartnoma

2. Loyihaning nomi: **Pudrat shartnomasi**

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot: Qorovulbozor tuman Obodonlashtirish boshqarmasi tomonidan 30.11.2022 yilda kiritilgan.

Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

**Qorovulbozor tumani
yuridik markazi
bosh yuristkonsulti:**



J.R.HAMROYEV

30.11.2022